© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK ANTROPOTSENTRIK TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHI SIFATIDA

Mo‘minjonova Sharifa
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Lingvistika yo‘nalishi magistranti
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22933826

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikda antropotsentrik yondashuvning shakllanishi va lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanishi tahlil qilinadi. Til va madaniyatning o‘zaro munosabati, til birliklarida xalqning milliy mentaliteti, qadriyatlari, tarixiy tajribasi va dunyoqarashining aks etishi yoritiladi. Shuningdek, lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishida V. fon Gumboldt, E. Sepir, V. N. Teliya, V. A. Maslova va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari hamda ushbu yo‘nalishning o‘zbek tilshunosligidagi tadqiq etilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Lingvomadaniyatshunoslikning antropotsentrik paradigma doirasidagi o‘rni, uning obyekti va predmeti hamda til birliklarini milliy-madaniy mazmun asosida tadqiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: antropotsentrik paradigma, antropotsentrik yondashuv, til va madaniyat, lingvomadaniyatshunoslik, lingvokulturologiya, milliy mentalitet, milliy-madaniy xususiyat, lingvomadaniy konsept, tilshunoslik.

Аннотация: В данной статье анализируются формирование антропоцентрического подхода в языкознании и развитие лингвокультурологии как самостоятельного научного направления. Рассматривается взаимосвязь языка и культуры, а также отражение в языковых единицах национального менталитета, ценностей, исторического опыта и мировоззрения народа. Особое внимание уделяется научным взглядам В. фон Гумбольдта, Э. Сепира, В. Н. Телии, В. А. Масловой и других исследователей, оказавших влияние на формирование данного направления, а также вопросам его изучения в узбекском языкознании. Раскрываются место лингвокультурологии в рамках антропоцентрической парадигмы, её объект и предмет, а также возможности исследования языковых единиц с учётом их национально-культурного содержания.

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, антропоцентрический подход, язык и культура, лингвокультурология, национальный менталитет, национально-культурная специфика, лингвокультурный концепт, языкознание.

Abstract: This article analyzes the formation of the anthropocentric approach in linguistics and the development of linguoculturology as an independent field of study. It examines the interrelationship between language and culture and the ways in which national mentality, values, historical experience, and worldview are reflected in linguistic units. The study also considers the scholarly views of Wilhelm von Humboldt, Edward Sapir, V. N. Teliya, V. A. Maslova, and other researchers who contributed to the formation and development of the linguocultural approach, as well as the study of these issues in Uzbek linguistics. Particular attention is paid to the place of linguoculturology within the anthropocentric paradigm, its object and subject of study, and the possibilities of analyzing linguistic units in terms of their national and cultural content.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Keywords: anthropocentric paradigm, anthropocentric approach, language and culture, linguoculturology, national mentality, national and cultural features, linguocultural concept, linguistics.

Tilshunoslikda so‘nggi yillarda tilni o‘rganishda antropotsentrik yondashuv muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Mazkur yondashuv tilni inson bilan uzviy bog‘liq holda, ya’ni inson tafakkuri, dunyoqarashi, madaniyati va kommunikativ faoliyati bilan aloqador holda o‘rganishni nazarda tutadi. Antropotsentrik paradigma tilni faqat grammatik yoki struktur tizim sifatida emas, balki inson faoliyati mahsuli hamda uning tafakkuri va madaniy tajribasini aks ettiruvchi hodisa sifatida talqin qiladi. “Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati “til qanday qurilgan” degan masaladan “til qay tarzda amal qiladi” degan masalaga ko‘chdi... Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo‘lgan shaxs omili nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi”.

Antropotsentrik nazariya tadqiqot obyektini subyekt bilan bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, ushbu yondashuvda til inson bilan uzviy aloqada tahlil qilinadi, ya’ni til inson faoliyati va tafakkuri bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Shu bois antropotsentrik yondashuv doirasida til insonda, inson esa til orqali tahlil qilinadigan hodisa sifatida qaraladi[1].

Til insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri sanaladi. U kishilar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlaydigan asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, rivojlanib boradi va insonlarning fikr almashuvi, bilim va tajribasini avloddan-avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, til xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari hamda dunyoqarashini o‘zida aks ettiruvchi madaniy hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashhur rus tilshunosi G.O. Vinokur til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratadi. Olimning fikricha, “tilni o‘rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili mahsuli bo‘lgan o‘sha madaniyatning ham tadqiqotchisiga aylanadi”[2]. Mazkur qarash tilshunoslik fanining shakllanish jarayonidan boshlab til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlab kelmoqda.

Til o‘zining kelib chiqishi jihatidan madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boradi. Ular o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik natijasida til milliy ruh va xalq tafakkurining muhim tarkibiy qismiga aylanadi, deb e’tirof etiladi[3]. Bunday uzviy bog‘liqlik tilni nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy madaniyatni ifodalovchi hamda saqlovchi muhim omil sifatida qarash zaruratini yuzaga keltiradi. Har bir xalqning mentaliteti, turmush tarzi va ijtimoiy tajribasi til birliklarida o‘z aksini topadi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilib, bu jarayon lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishining shakllanishiga asos bo‘ldi.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri deya qaralgan lingvokulturologiya (lot.lingua – til + lot. culture – parvarish + yunoncha. logos – ta’limot) tilshunoslik va madaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida shakllangan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni, til birliklarida xalqning milliy mentaliteti, qadriyatlari hamda dunyoqarashining aks etish xususiyatlarini tadqiq etadi. Lingvomadaniyatshunoslik (lingvokulturologiya) terminning shakllanishi bevosita V.N. Teliya rahbarligida faoliyat yuritgan

[1] Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультурология: услубий қўлланма. – Наманган: НамДУ, 2017. – Б. 8.

[2] Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. –М.: «Учпедгиз», 1959. –С. 211.

[3] Xudoyberganova Z.N., Mamarajabov B.B. Til va madaniyat: o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sir masalasi // Zamonaviy ta’lim. – 2016. – №1. – B. 31.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Moskva frazeologik maktabi olimlari Yu.S. Stepanov, A.D. Arutyunova, V.V. Vorobyev, V. Shaklein va V.A. Maslova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liqdir[4].

“Til va madaniyat” masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, ushbu muammo turli fan sohalari vakillari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Xususan, madaniyatshunoslar, tilshunoslar, faylasuflar, psixologlar, etnograflar hamda adabiyotshunoslar bu masalaga o‘z ilmiy yondashuvlari asosida baho beradilar[5].

Har qanday til o‘zida shu tilda so‘zlashuvchi xalqning dunyoqarashini belgilovchi hamda olam haqidagi tasavvurlarini shakllantiruvchi milliy va o‘ziga xos xususiyatlar tizimini mujassam etadi. Shu tufayli, madaniyat tilning mazmuniy jihatini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning o‘zaro munosabatini yaxlit tizim sifatida o‘rganuvchi fanlararo sohadir. Bu yo‘nalish doirasida tilda o‘z ifodasini topgan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va milliy-madaniy merosi kompleks ravishda tahlil qilinadi.

XX asrning 90-yillariga kelib, lingvomadaniyatshunoslik fanning yangi va maxsus sohasi sifatida ajralib chiqdi. Dunyo tilshunosligida lingvomadaniy aspektdagi tadqiqotlarning yuzaga kelishi ham XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, tilshunoslik fanida yuz bergan muhim paradigmal o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘landi. Bu davrga qadar til asosan mustaqil, yopiq tizim sifatida, ya’ni uning grammatik va struktural xususiyatlari doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik tilni inson, jamiyat va madaniyat bilan uzviy aloqada tadqiq etish zarurati paydo bo‘ldi hamda “til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning o‘zi madaniyatdan o‘sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir”[6] degan faraz qabul qilina boshlandi. Natijada tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv shakllanib, til madaniyatni aks ettiruvchi va uni uzatuvchi vosita sifatida talqin qilina boshladi. Aynan shu ilmiy muhitda lingvomadaniy aspektdagi tadqiqotlar vujudga keldi va mustaqil yo‘nalish sifatida rivojlandi.

Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat masalasi aslida qadimdan olimlar e’tiborini tortib kelgan. Qadimgi yunon faylasuflari tilni xalq tafakkuri va ruhiyati bilan bog‘liq hodisa sifatida ko‘rganlar. Biroq bu g‘oyalar ilmiy tizim darajasiga XIX asrga kelib ko‘tarildi.

Til va madaniyatning o‘zaro munosabati to‘g‘ridan to‘g‘ri Vilgelm fon Gumboldtga borib taqaladi. Nemis tilshunosi va faylasufi V. fon Gumboldtning “Odam tillarining tuzilishidagi farqlar va uning insoniyatning ma’naviy rivojlanishiga ta’siri” nomli asarida batafsil yoritib berilgan[7]. Tilshunos tilni xalq ruhining mahsuli deb baholab, har bir til dunyoni o‘ziga xos tarzda aks ettirishini ta’kidlagan. Uning fikricha, til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va tafakkur tarzini mujassamlashtiruvchi hodisadir.

Gumboldt tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar XIX–XX asrlarda neogumboldtchilik yo‘nalishi doirasida yanada rivojlantirildi. Ushbu yo‘nalish tilshunoslikda Gumboldt qarashlariga asoslangan yangi ilmiy bosqichni ifodalaydi. Xususan, XIX asrda Rossiyada A.A. Potebnya Gumboldtning tilni faoliyat sifatida talqin etish haqidagi g‘oyalarini davom ettirib, ularni yanada chuqurlashtirdi. Uning ushbu qarashlari keyinchalik lingvomadaniyatshunoslikning nazariy asoslaridan biri bo‘lib xizmat qildi[8].

Rus tilshunosligida ham lingvokulturologiya masalalari keng o‘rganilgan. Jumladan, V.A.Maslovaning darsligida lingvokulturologik tadqiqotlarning zamonaviy yo‘nalishlari tavsiflanib,

---

[4]Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.

[5] Xudoyberganova Z.N., Mamarajabov B.B. Til va madaniyat: o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sir masalasi // Zamonaviy ta’lim. – 2016. – №1. – B. 34.

[6] Усманова Ш. Лингвомаданиятшунослик: дарслик. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 7.

[7] Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: «Прогресс», 1984. – С. 80.

[8] Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. – Харьков, 1922. – С. 19-20.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

ushbu sohaning metodologik asoslari yoritilgan[9]. Shuningdek, V.V.Vorobyevning «Лингвокультурология: теория и методика»[10] nomli tadqiqoti gumoldtchilik nazariyasi asosida yaratilgan bo‘lib, unda til orqali ifodalangan madaniyat hodisalarini o‘rganish Sepir–Uorf gipotezasi asosida izohlangan.

V.A.Maslova lingvokulturologiya rivojlanishini uch davrga ajratadi:

1) fanning shakllanishiga asos bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V. Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A. A. Potebnya va E. Sepir kabi tilshunoslarning asarlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot sohasi sifatida shakllanishi;

3) lingvokulturologiyaning fundamental, mustaqil fan sifatida vujudga kelishi[11].

V.N.Teliyaga ko‘ra, lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir[12].

G.G.Slishkin “lingvokulturologiya – o‘z tadqiqotlarida inson omiliga, xususan, inson faoliyatida namoyon bo‘ladigan madaniy omilga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu yo‘nalishning markazida madaniyat fenomenining turishi esa uning inson haqidagi fanlarning antropologik paradigmasiga mansub ilmiy hodisa ekanligini ko‘rsatadi”[13].

Z.Xudayberganova fikricha, hech bir tilshunos “Til va madaniyat” masalalari bilan amerikalik mashhur tilshunos va madaniyatshunos Edvard Sepir (1884–1939) darajasida chuqur va samarali shug‘ullanmagan. Sepirning “Tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo‘yicha tanlangan asarlari”da til va madaniyat masalalariga oid bir qator muhim savollar batafsil yoritilgan[14]. E.Sepirning ta’kidlashicha, til madaniyatdan oldin shakllangan hodisa hisoblanadi, chunki u madaniyatga nisbatan ma’no ifodalovchi asosiy vosita vazifasini bajaradi. Til milliy madaniyatning mavjudligi va uning ifodalanishining muhim shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, Sepir tilni ijtimoiy hamda madaniy rivojlanish natijasi sifatida ham baholaydi. Uning fikriga ko‘ra, til madaniyatning ijtimoiylashgan qismi sifatida qaraladi[15]. Sepir o‘z tadqiqotlarida til orqali xalqning dunyoni idrok etish usuli va milliy tafakkur xususiyatlari namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning bu qarashlari keyinchalik tilshunoslikda til va tafakkur, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan ko‘plab ilmiy yo‘nalishlar, jumladan, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik rivojiga muhim ta’sir ko‘rsatdi.

Til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir masalalari etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptologiya hamda lingvopersonologiya kabi ilmiy yo‘nalishlarda ham o‘rganiladi. Shu sababli mazkur sohalar lingvomadaniyatshunoslikka yaqin bo‘lgan va u bilan uzviy bog‘liq ilmiy yo‘nalishlar sifatida qaraladi.

---

[9] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 35.

[10] Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: Изд-во РУДН, 2008. – 336 с.

[11] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 28.

[12] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.

[13] Слышкин Г.Г. От текста к символу: Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – М.: Гнозис, 2000. – С. 45.

[14] Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 223.

[15] O‘sha asar. – B. 23.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Sh.Usmanova lingvomadaniyatshunoslik etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan chambarchas aloqadaligini aytib, etnolingvistikani ildizi kimlarga borib taqalishini ko'rsatib beradi[16].

V.N.Teliyaning fikricha, lingvomadaniyatshunoslik etnolingvistikaning tarkibiy qismi sifatida shakllangan bo'lsa-da, ularning har ikkalasi o'z mohiyatiga ko'ra mustaqil fanlar hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik til birliklarining madaniy mazmunini o'rganishga, etnolingvistika esa xalq tilining madaniy va ijtimoiy kontekstdagi xususiyatlarini tadqiq qilishga yo'naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, lingvomadaniyatshunoslik etnolingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, tadqiqot obyekti va predmeti jihatidan alohida ilmiy soha sifatida qaraladi.

Sh.Safarov jahon tilshunoslari, xususan, Uorf–Sepir, Gumboldt hamda A. Vejbitskaya tomonidan lingvokulturologiyaga berilgan ta'riflarni umumlashtirib tahlil qiladi: "Tilning madaniyat uchun xizmat qilishini madaniy–ma'naviy boylik, axborot manbalarini saqlash, ularni avloddan avlodga yetkazish hamda madaniy tushunchalar va konseptlar, stereotip va etalon-namunalarni shakllantirishda bevosita ishtirok etishini hech qachon inkor etib bo'lmaydi. Til va madaniyat o'rtasidagi determinizm, ya'ni o'zaro bir-birini taqozo etish haqiqiy "o'zarochilik"dir. Shu sababli turli mamlakatlar olimlari tomonidan til va madaniyat munosabati masalasi turli yo'nalishlarda o'rganilayotgani tabiiydir. Keyingi yillarda tilshunoslikda lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanishi bu masalaning dolzarb ahamiyat kasb etishiga sabab bo'lmoqda"[17].

Shuningdek, lingvokulturologiyaning obyekti sifatida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabat hamda ularning til birliklarida aks etish jarayoni tushuniladi. Lingvokulturologiyaning predmeti esa, til birliklarida mujassamlashgan lingvomadaniy mazmun, milliy-madaniy semantika va ular orqali ifodalanadigan xalqning dunyoqarashi hamda madaniy qadriyatlaridir.

Maslovaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiyaning obyekti lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi[18].

Bundan tashqari, lingvokulturologiyaning obyekti haqida ba'zi munozarali qarashlar ham mavjud. Jumladan, V.N.Teliyaga ko'ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslovaga ko'ra esa, bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi. Bundan tashqari, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlagan bo'lsa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozimligini aytadi[19].

XXI asr boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllandi. Hozirgi kunda ushbu soha jahon, ayniqsa rus tilshunosligida faol rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Mazkur ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada bir qator muhim masalalar o'rganilgan. Jumladan, 1) muayyan nutqiy janrlarning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish yo'nalishida asosan miflar hamda xalq og'zaki ijodi janrlariga xos til birliklari lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi; 2) muayyan uslubda yaratilgan asarlarda lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishini o'rganish bo'lib, bunda ko'proq badiiy-nasriy matnlar tilidagi lingvomadaniy birliklar tahlil qilinadi; 3) qiyosiy xarakterdagi tadqiqotlar bo'lib, turli tillardagi lingvomadaniy birliklar o'zaro solishtiriladi, xususan rus tilidagi birliklar ingliz, nemis va fransuz tillari materiallari bilan qiyosiy o'rganiladi; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etish bo'lib, bunda ijtimoiy fanlar doirasida o'quvchi va talabalarda lingvomadaniy birliklarni aniqlash

[16] Усманова Ш. Лингвомаданиятшунослик: дарслик. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 17.
[17] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 65.
[18] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 35-36.
[19] Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: учебное пособие. – М.: Флинта, 2011. – С. 25.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

hamda ularni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

O‘zbek tilshunosligida ham lingvokulturologiyaga oid ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda shakllana boshladi. Xususan, mazkur sohaning nazariy asoslarini yoritish hamda madaniyatning til birliklarida aks etishi masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki ishlardan biri sifatida N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…” maqolasi e’tirof qilinadi. Maqolada lingvokulturologiya, umuman olganda, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar asosli yoritib berilgan. Shuningdek, lingvokulturologik nazariyaning shakllanishiga xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar hamda ularning talqinidagi turli xil yondashuvlar haqida asosli mulohazalar keltirilgan[20].

D.Xudayberganova badiiy matnning antropotsentrik xususiyatlarini yoritish davomida, lingvokulturologiyada matn muhim tadqiq obyektlardan biri ekanligini ta’kidlab shunday deydi: **“K**uzatishlar natijasida aytish mumkinki, o‘xshatish va uning qisqaragan shakli bo‘lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo‘lishi mumkin. O‘xshatish va metaforalarga asoslangan matnlar ma’lum bir til doirasida qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini ham beradi**”**[21].

Z.I.Soliyevaning nomzodlik dissertatsiyasi o‘zbek va ingliz tillaridagi sentensiyalarni, ya’ni axloqiy-ta’limiy mazmunga ega matnlarni milliy-madaniy xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga qaratilgan[22].

Prof. E.Begmatov esa 2013 yilda e’lon qilgan maqolasida e’tiborini “antroponimik birliklarda antropotsentrik usul uchun material bera oladigan xususiyatlar”ni aniqlashga qaratadi[23]. Olimning ta’kidlashicha, antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bog‘liqligi, ularda inson ehtiyoji hamda ijodining namoyon bo‘lishi, inson nomlarida qadimgi davr kishilarining madaniy-ma’naviy va etnik qarashlari aks etishi, umuman olganda, ismlarning xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmushi bilan bog‘liqligi ularni antropotsentrik paradigma asosida o‘rganish uchun muhim asos bo‘la oladi.

Prof. A.Nurmonov esa o‘z maqolasida lingvistik nisbiylik va lingvistik determinizm nazariyalari haqidagi mulohazalarini bayon qilar ekan, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqaga doir qarashlarini ham bildiradi[24]. Olim lingvistik nisbiylik nazariyasining asoschilari B. Uorf va E. Sepirning til hamda tafakkur madaniyat shakli ekanligi haqidagi fikrlarini e’tirof etish bilan birga, tillar o‘rtasida umumiy jihatlar ham mavjudligini ta’kidlaydi va shunday yozadi: “Har bir tilda xalqning ruhi, milliy madaniyati, dunyoni o‘ziga xos ko‘rish va idrok etish usuli namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, tillar o‘rtasida obraz yaratish jarayonida shunday umumiy jihatlar ham borki, ular umuminsoniy tafakkur mahsuli sifatida yuzaga keladi”[25].

---

[20] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16.

[21] Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. …дисс. авт.реф. – Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2015. – Б. 18.

[22] Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – 25 с.

[23] Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35–39.

[24]Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2009. – № 6. – Б. 7–8.

[25] O‘sha asar. – B. 104.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Faol qo‘llaniladigan lingvomadaniy tushunchalardan biri bu konseptdir. Zamonaviy lingvistikada konsept tushunchasi nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida talqin etiladi. Konsept ong sohasiga mansub bo‘lib, u faqat tasviriy-tasnifiy xususiyatlar bilan cheklanmay, balki hissiy-irodaviy hamda obrazli-empirik jihatlarni ham o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, konseptlar nafaqat anglash jarayonida, balki insonning kechinmalari orqali ham idrok etiladi.

Yu.S.Stepanov o‘zining tadqiqotlarida mental shakllanishning mohiyatini ochishga harakat qilib, konsept so‘zining etimologiyasiga murojaat qiladi. Konsept lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” so‘zidan olingan. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba’zan unga ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi[26].

Prof. N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o‘rganilishi haqida shunday deydi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e’tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo‘nalish nihoyatda keng tarqalganini ko‘rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog‘iga yetish mushkul. Hatto so‘nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan”[27].

Shunday qilib, konsept tushunchasi lingvokulturologiyada muhim nazariy kategoriya sifatida e’tirof etilib, u orqali til birliklarida mujassam bo‘lgan milliy-madaniy mazmun ochib beriladi. Shu nuqtayi nazardan, lingvomadaniy konseptlar muayyan til birliklarida, xususan, turli nutqiy shakllarda o‘z ifodasini topadi.

Xususan, ilmiy tadqiqot asosi hisoblangan buyruq gaplar ham muayyan lingvomadaniy konseptlarning ifodachisi sifatida namoyon bo‘lib, ular orqali xalqning kommunikativ odobi, ijtimoiy munosabatlari hamda madaniy qadriyatlari aks etadi. Shu bois buyruq gaplarni tadqiq etishda ularning nafaqat grammatik xususiyatlarini, balki lingvomadaniy va pragmalingvistik jihatlarini ham kompleks tarzda tahlil qilish zarur. Masalan, o‘zbek tilida buyruq gaplarning yumshoq shakllarda ifodalanishi ko‘proq muloyimlik va hurmat konsepti bilan bog‘liq bo‘lsa, arab tilida buyruq shakllarining diniy yoki an’anaviy nutq bilan uyg‘unlashuvi muayyan madaniy va diniy konseptlar bilan izohlanadi.

Shu jihatdan, til birliklarini, xususan, buyruq gaplarni ikkala til doirasida lingvomadaniy va pragmalingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi hamda mazkur tadqiqotning keyingi bosqichlarida batafsil ko‘rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультурология: услубий қўлланма. – Наманган: НамДУ, 2017. – 127 б.
2. Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1959. – 460 с.
3. Xudoyberganova Z.N., Mamarajabov B.B. Til va madaniyat: o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sir masalasi // Zamonaviy ta’lim. – 2016. – № 1. – B. 31–34.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.

[26] Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2004. – С. 42.
[27] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

5. Усманова Ш. Лингвомаданиятшунослик: дарслик. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – 192 б.
6. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 397 с.
7. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. – Харьков, 1922. – 452 с.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
9. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: Изд-во РУДН, 2008. – 336 с.
10. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – 654 с.
11. Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – М.: Гнозис, 2000. – 128с.
12. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.
13. Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: учебное пособие. – М.: Флинта, 2011. – 176 с.
14. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16.
15. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: филол. фан. док. … дисс. автореф. – Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2015. – 240 б.
16. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – 25 с.
17. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35–39.
18. Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – № 6. – Б. 7–8.
19. Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2004. – 991 с.